



2019-yilning yanvar-mart oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –
11 179,7 mlrd. so`m

O`tgan yilning mos davriga
nisbatan –
105,9 %

Nodavlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –
10 597,5 mlrd. so`m

Davlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –
582,2 mlrd. so`m

Joriy yilning yanvar-mart oylarida O`zbekiston Respublikasida jami 11 179,7 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 574,4 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 11,4 %ga kam ishlar bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkich darajasidan 6,4 %ga kamaygan.

Yirik qurilish
tashkilotlari




Kichik korxonalar
va mikrofirmalar



Norasmiy sektor



O`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Jami qurilish ishlaridagi ulushi, % da





Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 43,7 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,0 % ni tashkil etgan holda 4 884,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga ko'payib, 24,3 % ni tashkil etdi va 2 721,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 118,1 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi **yangi bino va inshootlarni qurish** bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 79,7 %i yoki 8908,1 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini yaratishga qaratilgan.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlarining 90,4 %i yoki 3232,2 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.





Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 90,5 %i yoki 2463,9 mlrd. so'm yangi qurilish ishlariga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan jami qurilish ishlarining 65,8 %i yoki 3211,9 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.




FAOLIYAT TURLARI BO`YICHA QURILISH ISHLARI



76,6 %


Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlarining ulushi jami qurilish ishlari hajmida 76,6 % ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 3,6 % punktga kamaydi.

11,7 %



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,7 % to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga ko`paydi.

11,7 %



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 11,7 % ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga ko`paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 30,5 % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 8,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 3,6 % punktga ko`payib, 38,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 5,2 % punktga ko`payib, 31,4 % ni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 47,2 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan o`zgarishsiz qoldi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 50,3 % (1,0 % punktga ko`payish) va norasmiy sektorning ulushi 2,5 % ni (1,1 % punktga kamayish) tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi va 26,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 73,3 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari


	Jami qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan, % da	O'sish sur'ati, % da	Jamidan yangi qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm
O'zbekiston Respublikasi	11 179,7	100,0	105,9	8 908,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	563,1	5,0	111,7	428,3
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	498,0	4,5	104,9	338,9
Buxoro	604,3	5,4	131,3	393,1
Jizzax	372,3	3,3	114,7	308,2
Qashqadaryo	812,6	7,3	111,1	569,2
Navoiy	611,3	5,5	142,7	459,3
Namangan	391,7	3,5	106,7	288,2
Samarqand	587,7	5,3	106,5	468,2
Surxondaryo	502,9	4,5	125,5	421,7
Sirdaryo	177,3	1,6	107,2	120,4
Toshkent	722,7	6,5	117,1	549,1
Farg'ona	765,8	6,9	121,6	603,2
Xorazm	394,9	3,5	105,7	312,3
Toshkent sh.	2 158,8	19,3	115,7	1 631,8

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibida Toshkent shahri qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar Respublika bo'yicha jami hajmning 19,3 % ini tashkil etdi. Bu 2 158,8 mlrd. so'm qurilish ishlari demakdir. Bunday katta hajmdagi qurilish ishlari Respublika bo'yicha eng yirik qurilish tashkilotlarining hamda ko'plab kichik qurilish korxonalari va mikrofirmalarni Toshkent shahrida joylashgani bilan izohlanadi.

Shu bilan birga mazkur hududda olib borilayotgan keng ko'lamli qurilish ishlari, jumladan, metro liniyalari qurilishi, "Tashkent City" xalqaro ishbiarmonlik markazi qurilishi, davlat dasturlari doirasida va boshqa sotish uchun mo'ljallangan ko'plab turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlari hajmining katta bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi

(jamiga nisbatan, % da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati

Navoiy viloyatida (142,7 %) kuzatildi:


- “Navoiy davmaxsus pudrat” UK tomonidan kanallar va kollektorlarni yangi qurilishi hamda rekonstruksiya;
- “Navoiy ko`priklardan foydalanish” UK tomonidan avtomagistral yo`llarini joriy ta`mirlash ishlari;
- “Karmandav susvmaxsus pudrat” UK tomonida kollektorlar qurilish ishlari olib borilmoqda.

Buxoro viloyatida (131,3 %) yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining oshishiga:

- “Buxoro yo`llardan mumtazam foydalanish” UK tomonidan magistral yo`llarni rekonstruksiya qilish;
- “Neftegazuskunamontaj” UK tomonidan Kul tozalash bloklarida qurilish ishlari;

Hududlar bo`yicha qurilish ishlarining o`shish sur`atlari

(o`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)






Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish hajmining 32,1 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,0 %), Navoiy (mos ravishda, 22,5 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 %), Buxoro (mos ravishda, 20,7 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,1 %) va Qashqadaryo viloyatlari (mos ravishda, 20,4 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 161,8 %) yetakchilik qilmoqda.

nisbatan 104,1 %) va Qashqadaryo viloyatlari (mos ravishda, 20,4 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 161,8 %) yetakchilik qilmoqda.




Hududlar kesimida qurilish ishlari







Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand (hududdagi jami qurilish hajmining 1,7 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 53,9 %), Jizzax (mos ravishda, 2,0 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 194,6 %) va Namangan viloyatlarida (mos ravishda, 3,9 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1

marta ko'paygan) kuzatildi.





- Bino va inshootlarni qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlar qurilishi bo'yicha Xorazm (jami hajmdan 82 %), Farg'ona (81 %) va Jizzax (80 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Fuqarolik obyektlari qurilishida Surxondaryo viloyati (25 %), Toshkent shahri (21 %) va Sirdaryo (19 %) viloyatida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha Buxoro (22 %), Andijon (20 %) hamda Namangan (20 %) viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.



11,5 %

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(71) 230-80-56